International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service
Vol. 1 Issue 1 | pp. 56-59 | **ISSN:** XXXX-XXXX
Available online @ https://globalconf.net/index.php/samisi

Article

Directions for Harmonizing Regional Economic Growth and Ecological Sustainability

Yuldosheva Sh.A*[1] Umirova L.O[2]

1. dotsent Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi
2. Qarshi davlat texnika universiteti 1-kurs magistranti

* Correspondence: yuldoshevashahribonu@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda institutsional-iqtisodiy yo'nalishlari tadqiq etilgan. Iqtisodiy faoliyatning kengayishi, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi, ekologik muammolar va atrof-muhitga antropogen ta'sirning kuchayishi sharoitida hududiy rivojlanishning ekologik jihatdan muvozanatlashgan modelini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: hududiy iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot, institutsional mexanizm, ekologik siyosat, yashil investitsiyalar, tabiiy resurslar, energiya samaradorligi, aylanma iqtisodiyot, barqaror rivojlanish.

Citation: Yuldosheva Sh.A Directions for Harmonizing Regional Economic Growth and Ecological Sustainability. International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service 2026, 1(1), 56-59.

Received: 12th Aug 2026
Revised: 26th SSep 2026
Accepted: 18th Oct 2026
Published: 22th Nov 2026

Copyright: © 2026 by the authors. Submitted for open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

1. Kirish

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida globallashuv, sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasining ham dolzarbligini oshirmoqda. Bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotni faqat yalpi ichki mahsulot hajmining ortishi yoki ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi bilan baholash yetarli emas. Chunki, iqtisodiy faoliyatning kengayishi tabiiy resurslarga bo'lgan talabning ortishi, energiya iste'molining ko'payishi, chiqindilar hajmining kengayishi va atrof-muhitga salbiy ta'sirning kuchayishi bilan kechishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhim strategik vazifaga aylanmoqda.[1]

O'zbekiston sharoitida ham iqtisodiy o'sish, energiya samaradorligini oshirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi [3] mamlakatda resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqaror iqtisodiy rivojlanishning institutsional asoslarini belgilab berdi.

2. Tahlil Va Natijalar

Hududiy iqtisodiy o'sish hududlarda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, investitsiya va tadbirkorlik faoliyatining kengayishi bilan tavsiflanadi. Biroq iqtisodiy faollikning ortishi tabiiy resurslardan foydalanish hajmini ham oshirishi mumkin. Masalan, sanoat

korxonalarining ko‘payishi energiya va suv iste’molining ortishiga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining kengayishi yer va suv resurslariga bosimning kuchayishiga, transport faoliyatining rivojlanishi esa atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar hajmining ko‘payishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun iqtisodiy o‘sishni ekologik mezonlar bilan uyg‘unlashtirishda quyidagi uchta tarkibiy yo‘nalishni hisobga olish lozim:

1. Iqtisodiy samaradorlik. Hududda ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, investitsiyalarni jalb qilish va aholi daromadlarini ko‘paytirish.

2. Ekologik samaradorlik. Tabiiy resurslardan foydalanish intensivligini kamaytirish, energiya va suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash.

3. Ijtimoiy barqarorlik. Aholining sog‘lom atrof-muhitda yashash huquqini ta’minlash, ekologik madaniyatni oshirish va yashil ish o‘rinlarini yaratish.

Demak, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy modeli iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalarning o‘zaro muvozanatiga asoslanishi lozim.

Institutsional mexanizmlar iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining ekologik mas’uliyatini belgilash, tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish va ekologik siyosatni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantiradi.

Mazkur yo‘nalishda quyidagi mexanizmlar muhim ahamiyatga ega:

1. Ekologik qonunchilik va tartibga solish tizimini takomillashtirish.

Hududlarda faoliyat yuritayotgan sanoat va ishlab chiqarish korxonalarining ekologik talablarga rioya etishini ta’minlash, ekologik ekspertiza va monitoring tizimlarini takomillashtirish zarur.

2. Hududiy ekologik boshqaruv tizimini rivojlantirish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari, ekologiya tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari va jamoatchilik o‘rtasida ekologik masalalar bo‘yicha hamkorlikni kuchaytirish lozim.

3. Ekologik monitoring va raqamli nazorat tizimini joriy etish.

Atmosfera havosi, suv resurslari, yer holati va sanoat chiqindilari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni raqamli texnologiyalar yordamida muntazam kuzatish va tahlil qilish ekologik boshqaruv samaradorligini oshiradi.

4. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish.

Chiqindilarni qayta ishlash, suvni tejash, qayta tiklanuvchi energiya va ekologik infratuzilma loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

5. Ekologik mas’uliyat va korporativ boshqaruvni kuchaytirish.

Korxonalarda ekologik boshqaruv tizimlarini joriy etish, ekologik hisobotlarni shakllantirish va xalqaro ekologik standartlardan foydalanishni kengaytirish zarur.

Hududlarda ekologik jihatdan muvozanatlashgan iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlaridan samarali foydalanishni talab qiladi. Bunda quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish lozim: -yashil investitsiyalarni kengaytirish; -ekologik soliq va rag‘batlantirish mexanizmlari; -aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish; -energiya samaradorligini oshirish; -suv resurslaridan oqilona foydalanish.

Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavflarni kamaytirish va iqtisodiy o‘sishning ekologik jihatdan barqaror manbalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy model hisoblanadi.[2] O‘zbekiston hududlari tabiiy-iqlim sharoiti, iqtisodiy ixtisoslashuvi, tabiiy resurslari va ishlab chiqarish tarkibi bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Shu sababli ekologik barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha hududiy yondashuvni qo‘llash muhim hisoblanadi. Masalan, sanoat rivojlangan

hududlarda ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish va atmosfera ifloslanishini kamaytirish ustuvor vazifa bo‘lsa, qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan hududlarda suv tejovchi texnologiyalar, tuproq unumdorligini saqlash va agroekologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.[4]

Janubiy mintaqah hisoblangan Qashqadaryo viloyati misolida iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni uyg‘unlashtirishning quyidagi imkoniyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Sanoat ekologiyasini rivojlantirish. Neft-gaz, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlarida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilar va atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni kamaytirish.

2. Agroekologik rivojlanish. Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni kengaytirish, tuproq degradatsiyasining oldini olish va organik ishlab chiqarish imkoniyatlarini rivojlantirish.

3. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish. Quyosh energetikasi loyihalarini kengaytirish va korxonalarda muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish.

4. Chiqindilarni qayta ishlash. Sanoat va maishiy chiqindilarni saralash, qayta ishlash hamda ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish tizimini takomillashtirish.

5. Ekologik turizmni rivojlantirish. Shahrisabz, Kitob va boshqa hududlarning tabiiy hamda tarixiy salohiyatidan foydalanib, ekologik turizm xizmatlarini kengaytirish.

Yuqoridagi yo‘nalishlar hududda yangi iqtisodiy faoliyat turlarini shakllantirish, ekologik xavflarni kamaytirish va aholi bandligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

3. Xulosa

Mintaqada iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni uyg‘unlashtirish barqaror hududiy rivojlanishning muhim sharti ekanligi aniqlandi. Iqtisodiy faoliyatni ekologik mezonlar asosida tashkil etish tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ekologik xavflarni kamaytirish va uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlarni ta’minlash imkonini beradi.

Quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni berishimiz mumkin:

1. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda ekologik barqarorlik indikatorlarini majburiy tarkibiy qism sifatida kiritish lozim.

2. Hududlarda yashil investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, ekologik loyihalar uchun uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini kengaytirish zarur.

3. Sanoat korxonalarida energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarishning ekologik samaradorligini baholash tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq.

4. Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni kengaytirish, yer resurslaridan oqilona foydalanish va agroekologik innovatsiyalarni rivojlantirish zarur.

5. Hududiy ekologik-iqtisodiy monitoringning yagona raqamli tizimini shakllantirish orqali tabiiy resurslar, ishlab chiqarish va ekologik ko‘rsatkichlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni integratsiyalash lozim.

6. Davlat-xususiy sheriklik asosida chiqindilarni qayta ishlash, qayta tiklanuvchi energiya va ekologik infratuzilma loyihalarini kengaytirish taklif etiladi.

7. Hududlarda ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish, yashil ish o‘rinlarini yaratish va ekologik innovatsiyalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Dimak, hududiy iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni uyg‘unlashtirishning mexanizmi davlat ekologik siyosati, bozor rag‘batlari, innovatsion texnologiyalar, yashil investitsiyalar va mahalliy boshqaruvning o‘zaro integratsiyasiga asoslanishi lozim hamda tabiiy resurslarni kelajak avlodlar uchun saqlashga ham xizmat qiladi.

.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nordhaus W. The Climate Casino: Risk, Uncertainty, and Economics for a Warming World. - Yale University Press, 2013.
2. World Bank. Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. - Washington, DC, 2012.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.